

## 1980-1990 YILLARDA TOSHKENT SHAHRINING IJTIMOIY HAYOTI

Xursanov Mahmudjon

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti 2-kurs magistranti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15429510>

**Annotatsiya.** Maqola 1980–1990-yillarda Toshkent shahrining ijtimoiy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlarni o‘rganadi. Ushbu davrda sobiq Sovet Ittifoqining siyosiy tizimidagi zaiflashuv va siyosiy ochiqlik natijasida poytaxtda milliy uyg‘onish, madaniyat va til masalalariga qiziqish oshdi. Toshkentda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy haqiqatni tiklash va mustaqil fikrlash g‘oyalari keng yoyildi. Maqolada ushbu jarayonlarning jamiyat hayotiga ta’siri, siyosiy faollik va madaniy-tarixiy jarayonlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Toshkent, Ijtimoiy hayot, 1980–1990-yillar, Milliy uyg‘onish, Sovet tuzumining zaiflashuvi, Siyosiy ochiqlik, Milliy o‘zlik, Madaniyat, Til maqomi, Tarixiy haqiqat, Mustaqil fikrlash, Ziyolilar, Jamiyat faolligi, Siyosiy faollik, Madaniy meros.

### SOCIAL LIFE OF TASHKENT CITY IN THE 1980S–1990S

**Abstract.** This article examines significant changes in the social life of Tashkent during the 1980s and 1990s. During this period, due to the weakening of the Soviet political system and increased political openness, interest in national revival, culture, and language grew in the capital. Ideas of national identity awareness, restoration of historical truth, and independent thinking spread widely in Tashkent. The article analyzes the impact of these processes on social life, political activism, and cultural-historical developments.

**Keywords:** Tashkent, Social life, 1980s–1990s, National revival, Weakening of the Soviet system, Political openness, National identity, Culture, Language status, Historical truth, Independent thinking, Intellectuals, Social activity, Political activism, Cultural heritage.

### СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ ГОРОДА ТАШКЕНТА В 1980–1990-Е ГОДЫ

**Аннотация.** В статье рассматриваются важные изменения в социальной жизни Ташкента в 1980–1990-е годы. В этот период в столице усилился интерес к национальному возрождению, культуре и языку на фоне ослабления советской политической системы и политики гласности. В Ташкенте получили широкое распространение идеи осознания национальной идентичности, восстановления исторической правды и независимого мышления. В статье анализируется влияние этих процессов на общественную жизнь, политическую активность и культурно-исторические процессы.

**Ключевые слова:** Ташкент, Социальная жизнь, 1980–1990-е годы, Национальное возрождение, Ослабление советской системы, Политика гласности, Национальная идентичность, Культура, Статус языка, Историческая правда, Независимое мышление, Интеллигенция, Общественная активность, Политическая активность, Культурное наследие.

### Kirish

1980–1990-yillar — Toshkent shahrining ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlar yuz bergan murakkab va muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda sobiq Sovet Ittifoqining siyosiy tizimida yuzaga kelgan inqiroz, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va yangilanishga qaratilgan siyosiy

tashabbuslar Toshkent jamiyatining turli qatlamlarida sezilarli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga turtki berdi. Shu bilan birga, poytaxt aholisi orasida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, madaniyat va til masalalariga qiziqish oshdi, fuqarolik jamiyatni institutlari shakllanishi boshlanib, siyosiy faoliyatda o'zgarishlarga bo'lgan talab kuchaydi.

Mazkur maqolada 1980-yillarning oxiridan 1990-yillarning boshigacha bo'lgan davrda Toshkent shahrining ijtimoiy hayotida yuz bergan asosiy jarayonlar, ularning sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Toshkentda milliy uyg'onish, madaniy merosga e'tibor, tilga davlat maqomini berish harakati, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, aholining kundalik hayoti va siyosiy faolligidagi o'zgarishlar o'rganiladi. Maqola mazmuni orqali o'sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyati va Toshkentning undagi roli ochib beriladi.

### Asosiy qism

1980-yillarning oxiriga kelib, sobiq Sovet Ittifoqida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar O'zbekiston SSR, xususan, poytaxt Toshkent shahrining ijtimoiy hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda boshlangan oshkorlik va qayta qurish siyosati (glasnost va perestroyka) natijasida siyosiy nazoratning yumshashi, axborot erkinligining nisbatan kengayishi va norasmiy fikrlar uchun imkoniyatlarning ochilishi natijasida Toshkentda yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllandi. Bu davrda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga asos bo'luvchi jarayonlar kuzatildi.

Ayniqsa, milliy o'zlikni anglash, tarixiy haqiqatni tiklash va madaniy merosni qayta ko'rib chiqish g'oyalari jamiyatda katta qiziqish uyg'otdi. Toshkentda joylashgan ilmiy va madaniy muassasalar, universitetlar, yozuvchilar uyushmalari hamda teatrler bu uyg'onishning faol ishtirokchilariga aylandi. Milliy uyg'onish Toshkent ziyolilari, adabiyot va san'at namoyandalari, tarixchilar, jurnalistlar va o'qituvchilar safida keng miqyosda boshlandi. Bu holat XX asr boshidagi jadidchilik harakati g'oyalarni qayta muhokama qilishga olib keldi. Jadidlarning milliy uyg'onish, ma'rifat va taraqqiyotga qaratilgan sa'y-harakatlari yangi tarixiy kontekstda yana dolzarb tus oldi.

Tarix, til va madaniyat masalalari jamiyatda muhim muhokama mavzularidan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa gazeta va jurnallarda G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi siymolarning merosini qayta baholash, ularning ilmiy va badiiy faoliyatini xalq ongiga qaytarish bo'yicha maqolalar chop etildi. Shu bilan birga, norasmiy doiralarda boshlangan davra suhbatlari, konferensiyalar va madaniy tadbirlar orqali ijtimoiy ongda tarixiy xotira tiklana boshladi. Toshkent aholisi orasida o'z madaniy ildizlariga bo'lgan qiziqish ortdi.

1989-yilga kelib, Toshkent shahrida o'zbek tiliga davlat maqomini berish uchun boshlangan jamoatchilik harakati tobora ommalashdi. Universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalarini va ijodiy tashkilotlar bu jarayonning yetakchi kuchlariga aylandi. Tilga bo'lgan e'tibor faqat lingvistik emas, balki siyosiy va mafkuraviy ma'noga ega bo'lib bordi. Matbuotda va ommaviy chiqishlarda o'zbek tilini asrash, uni rivojlantirish va ta'lim tizimida keng joriy etish borasida keskin bahs-munozaralar olib borildi. Ushbu davrda Toshkentda ilk bor norasmiy harakatlari, jamoatchilik guruhlari va siyosiy faoliyat shakllana boshladi.

Shuningdek, bu yillarda Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Sovet tuzumining iqtisodiy inqirozi, mahsulotlar tanqisligi, baholarning oshishi, kommunal xizmatlar sifati pasayishi shahar aholisi hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Savdo do'konlaridagi uzun navbatlar, taqchillik, oziq-ovqat kuponlari orqali taqsimot tizimi joriy etilishi shaharliklar hayotini qiyinlashtirdi. Shu bilan birga, ko'plab zavod va fabrikalarda ishchilar soni qisqarib, ishsizlik holatlari paydo bo'la boshladi.

Aholi orasida ijtimoiy tengsizlik, etnik ziddiyatlar va markaziy hukumatga bo'lgan ishonchsizlik kuchaya boshladi. Ammo bu inqirozli holatlar bilan bir qatorda, Toshkentda jamiyatning muqobil ijtimoiy tashkilotlarga, madaniy uyg'onishga va mustaqil fikrlovchi ziyojolar safining kengayishiga guvoh bo'lindi. Aynan poytaxt Toshkent o'zining ijtimoiy faolligi, intellektual salohiyati va mafkuraviy izlanishlari bilan o'zbek jamiyatining keyingi davrda yuz beradigan o'zgarishlariga zamin yaratdi.

### Xulosa.

1980–1990-yillarda Toshkent shahrining ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi.

Sobiq Sovet Ittifoqining siyosiy tizimidagi zaiflashuv, siyosiy ochiqlik va milliy uyg'onish jarayonlari poytaxtda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirdi. Bu davrda milliy o'zlikni anglash, madaniyat va til masalalari faollandi, jamiyatda mustaqil fikrlash va tarixiy haqiqatni tiklash g'oyalari keng yoyildi. Toshkentda siyosiy va madaniy faollik oshib, yangi davrning asosiy ijtimoiy jarayonlari rivojlandi.

### REFERENCES

1. Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида (Иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2000.
2. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011.
3. Социально-культурный облик советских наций. — М ., 1986. С. 324
4. Народное образование и культура в СССР . Стат. сборник. — М ., 1989. С. 349.